



FRAZEOLOGIZMLARNING TARJIMA NAZARIYASIDAGI
MUAMMOLARI

*Xusnitdinova Dilrabo Donyorbek qizi, Andijon
davlat chet tillar instituti, Filologiya tillarni
o'qitish fakulteti "arab tili" yo'nalishi 1-bosqich
talabasi.*

*Egamberdiyeva Iroda Abduraximovna, Andijon
davlat chet tillari instituti, Gid hamrohligi,
madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik
kafedrasida dotsenti.*

Elektron pochta manzil:

Dilradoxon.12.12.2006@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar tahlil qilinadi. Frazeologizmlar tilning o'ziga xos madaniy va milliy xususiyatlarini aks ettirgani sababli, ularni boshqa tilga o'girishda muayyan muammolar yuzaga keladi. Tarjimon frazeologik birliklarni semantik ekvivalentlik, pragmatik moslik va madaniy kontekst nuqtayi nazaridan tahlil qilishi lozim. Maqolada tarjima jarayonida qo'llaniladigan strategiyalar va ularning samaradorligi misollar yordamida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: frazeologizm, tarjima, lingvistik tafovut, ekvivalentlik, pragmatik moslashuv, madaniy kontekst

Abstract: This article examines the challenges encountered in translating phraseological units. Since phraseological expressions reflect the cultural and national characteristics of a language, their translation into another language presents specific difficulties. A translator must analyze phraseological units from the perspectives of semantic equivalence, pragmatic adaptation, and cultural context. The article discusses strategies used in translation and evaluates their effectiveness through examples.



Keywords: *phraseology, translation, linguistic differences, equivalence, pragmatic adaptation, cultural context.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются проблемы перевода фразеологических единиц. Поскольку фразеологизмы отражают культурные и национальные особенности языка, их перевод на другой язык вызывает определенные трудности. Переводчику необходимо учитывать семантическую эквивалентность, прагматическую адаптацию и культурный контекст. В статье анализируются стратегии перевода и их эффективность, приводятся примеры.*

Ключевые слова: *фразеология, перевод, лингвистические различия, эквивалентность, прагматическая адаптация, культурный контекст*

KIRISH

Frazeologik birliklar har bir tilning o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lib, ular xalqning madaniyati, tarixi va turmush tarzini o'zida aks ettiradi. Shu bois, ularni tarjima qilish jarayonida nafaqat lingvistik, balki madaniy tafovutlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlarning o'ziga xosligi ularning an'anaviy so'z birikmalaridan farq qilishi va ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanishidadir. Frazeologizmlarni boshqa tilga o'girishda to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topish har doim ham imkoni bo'lgan jarayon emas. Tarjimon matnning konteksti, ifoda etilayotgan g'oya va frazeologik birlikning mazmunini hisobga olgan holda eng mos variantni tanlashi kerak. Bu esa turli strategiyalarni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Frazeologizmlarning tarjima nazariyasi bo'yicha ko'plar tarjimashunos olimlar o'z hissasini qo'shgan. Ulardan:

Mona Baker – “In Other Words: A Coursebook on Translation” (1992) deb nomlangan kitobida frazeologizmlar tarjimasida semantik ekvivalentlik va kontekstga moslashuv muhim. To'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topish har doim ham imkoni bo'lmaganligi sababli, analogiya va interpretatsiya usullaridan foydalanish kerak degan fikrni olg'a surgan.

Eugene Nida – “Toward a Science of Translating” (1964) kitobida dinamik ekvivalentlik nazariyasini ilgari suradi: tarjima nafaqat so'zma-so'z, balki



mazmun va ta'sir jihatidan mos bo'lishi lozim. Tarjimon madaniy tafovutlarni inobatga olishi shart deya ta'kidlaydi.

Vinogradov V. V. – “Об основных типах фразеологических единиц в русском языке” (1947) asarida frazeologizmlarni semantik yaxlitligi va tuzilishiga qarab uch turga ajratadi. To'g'ridan-to'g'ri tarjima qiyin bo'lganda, mazmuniy ekvivalent topish kerak deya e'tirof etadi.

Komissarov V. N. – “Теория перевода (лингвистические аспекты)” (1990) kitobida pragmatik moslik va kontekstga asoslangan tarjima strategiyalarini taqdim etadi. Ba'zi frazeologizmlar so'zma-so'z tarjima qilinsa, noto'g'ri tushunilishi mumkin deb yozadi.

O'zbek filologlariga yuzlanadigan bo'lsak, ular ham bu mavzu yuzasidan o'z fikrlarini bildirganlar va ulardan biri Mamatov A. – “O'zbek tilida frazeologizmlar va ularning tarjimasi” (2010) deb nomlangan ilmiy ishida o'zbek tilidagi frazeologizmlarning madaniy kontekstini saqlash muhim. Tarjimada stilistik va semantik moslikka e'tibor berish kerak degan fikrlarni yozgan.

Frazeologizmlar tarjimasi semantik ekvivalentlik, madaniy tafovutlar va pragmatik moslik kabi muhim omillarga bog'liq. Tarjimon so'zma-so'z tarjimaga tayanmasdan, kontekst va stilistik moslikni hisobga olib ishlashi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot frazeologizmlarning tarjima nazariyasidagi muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, ilmiy asoslangan metodologiyalar qo'llanildi. Tadqiqot davomida sifat va miqdoriy tahlil usullari, shuningdek, taqqoslash va kuzatish metodlari ishlatildi.

Tahlil va natijalar. Frazeologizmlarni tarjima qilishdagi asosiy muammolar tahlili quyidagicha. Frazeologik birliklarning tarjima jarayonida duch keladigan asosiy qiyinchiliklardan biri bevosita ekvivalentlikning yo'qligi hisoblanadi. Har bir til o'ziga xos frazeologik tuzilmalarga ega bo'lib, ularni boshqa tilga to'g'ridan-to'g'ri o'girish doimo ham mumkin emas (Newmark, 1988). Peter Newmarkning tadqiqotlariga ko'ra, frazeologik birliklarning ma'nosi ularning tarkibiy qismlarining to'g'ridan-to'g'ri ma'nosidan farqli bo'lganligi sababli, tarjima jarayonida semantik moslik muhim ahamiyat kasb etadi.



Eugene Nida (1964) tomonidan ilgari surilgan dinamik ekvivalentlik nazariyasiga ko'ra, frazeologizmlarni tarjima qilishda faqat so'zma-so'z moslik emas, balki matnning umumiy ta'siri ham muhim hisoblanadi. Bu shuni anglatadiki, tarjima jarayonida frazeologizmlarning semantik jihatdan mos keladigan ekvivalentlarini topish yoki madaniy moslashtirish zarur bo'ladi.

Masalan:

O'zbekcha: "O'rik gullaganda". (juda kam sodir bo'ladigan voqea)

Inglizcha ekvivalenti: "Once in a blue moon".

Ushbu tarjima dinamik ekvivalentlik asosida moslashtirilgan bo'lib, u har ikki madaniyatda ham biror voqeaning kam sodir bo'lishi ma'nosini beradi.

Frazeologizmlarni tarjima qilish usullarining samaradorligi.

Frazeologizmlarni tarjima qilish usullarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent orqali tarjima qilish faqat universal frazeologik birliklarga nisbatan samarali bo'lishi mumkin. Ammo ko'pchilik hollarda analogik tarjima yoki erkin tarjima kabi usullar afzal hisoblanadi (Catford, 1965).

Misol uchun:

O'zbekcha: "Ko'rpaga qarab oyoq uzat".

Inglizcha ekvivalenti: "Cut your coat according to your cloth".

Bu yerda analogik tarjima usuli qo'llanilgan bo'lib, u frazeologik birlikning semantik jihatdan mos keluvchi ekvivalentini taqdim etadi.

Newmark (1988) ta'kidlaydi, agar tarjimon frazeologik birlikni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qila olmasa, u mazmunni kontekstga moslashtirgan holda interpretatsiya qilishga e'tibor qaratishi kerak.

Bunga misol:

O'zbekcha: "Kallasini ishlatmoq".

Inglizcha erkin tarjima: "Use your brain".

Madaniy tafovutlarning tarjima jarayoniga ta'siriga yuzlanadigan bo'lsak. Frazeologik birliklar milliy madaniyat bilan chambarchas bog'langanligi sababli, tarjima jarayonida madaniy tafovutlar muammosi muhim ahamiyat kasb etadi (Hatim & Mason, 1997).



Jakobson (1959) esa tarjimada madaniy va semantik tafovutlarni inobatga olish muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, ba'zi frazeologizmlar faqat bitta madaniyatga xos bo'lishi mumkin, bu esa tarjimada muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Masalan, o'zbek tilidagi "Bittasi qozon, bittasi cho'mich" iborasi madaniy jihatdan tushunarli bo'lsa-da, ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti mavjud emas. Bunday hollarda madaniy moslashtirish usuli qo'llanilishi kerak:

To'g'ri tarjima: "They are inseparable like a pot and a ladle".

Bu tarjima orqali frazeologik birlikning ma'nosi saqlanadi, ammo uni boshqa madaniyat vakillari tushunishi osonlashadi.

So'zma-so'z tarjimaning natijalari

Frazeologik birliklarni so'zma-so'z tarjima qilish aksariyat hollarda semantik xatolarga olib keladi (Jakobson, 1959; Newmark, 1988).

Misol uchun:

O'zbekcha: "Tilda suyak yo'q".

Noto'g'ri tarjima: "There is no bone in the tongue".

To'g'ri tarjima: "Words have no limits".

Bu misolda so'zma-so'z tarjima frazeologik birlikning asosiy ma'nosini buzib qo'ygan, chunki ingliz tilida bu ibora mavjud emas. Shu sababli, semantik jihatdan mos ekvivalent topish muhim ahamiyatga ega.

Eksperimental tahlil shuni ko'rsatadiki, so'zma-so'z tarjima faqat grammatik jihatdan mos tushadigan frazeologizmlar uchun ishlaydi, aks holda, kontekstual va pragmatik moslikka e'tibor berish talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarni olish mumkin:

1. Frazeologizmlarni tarjima qilishda ekvivalentlik muammosi muhim ahamiyatga ega.
2. Madaniy tafovutlar tarjimada sezilarli ta'sir ko'rsatadi.
3. Analogik tarjima frazeologik birliklarning eng samarali tarjima strategiyasi hisoblanadi.
4. So'zma-so'z tarjima aksariyat hollarda ma'no buzilishiga olib keladi.



5. Frazеologik birliklarni tarjima qilish uchun pragmatik moslashuv muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Frazеologik birliklarni tarjima qilish murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonda lingvistik va madaniy tafovutlarni inobatga olish lozim. Tarjimon faqatgina so'zma-so'z tarjima qilish bilan cheklanmasdan, ma'no va kontekstni saqlagan holda ekvivalent topish usullaridan foydalanishi kerak. Frazеologizmlar tarjimasi nazariy jihatdan ham, amaliyotda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarjimonning kompetensiyasi va tarjima strategiyalaridan bevosita bog'liq bo'ladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1] Baker, M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London: Routledge, 1992, bet 63-78.
- [2] Bell, R. T. Translation and Translating: Theory and Practice. London: Longman, 1991, bet 102-105.
- [3] Catford, J. C. A Linguistic Theory of Translation. Oxford: Oxford University Press, 1965, bet 79-83.
- [4] Hatim, B., & Mason, I. The Translator as Communicator. London: Routledge, 1997, bet 89-92.
- [5] Jakobson, R. On Linguistic Aspects of Translation. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1959, bet 35-37.
- [6] Komissarov, V. N. Teoriya perevoda (lingvisticheskiye aspekty). Moskva: Nauka, 1990, bet 110-115.